



ORGAN VA TO'QIMALAR TRANSPLANTOLOGIYASINING AXLOQIY VA HUQUQIY NORMALARI.

Donoboyeva Dilshoda Faxriddin qizi.

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI DAVOLASH ISHI

YO'NALISHI

Ilmiy raxbar: Siddiqov N.N

Annontatsiya. Bu mavzu organ va to'qimalarni transplantatsiya qilish nima, bu jarayonning axloqiy yoki xususiy normalari qanday va bizning yurtimizda bu holatga qanday qaralishi haqida, hamda yurtimizda va jahon miqyosida qanday qonun qoidalar borligi bilan tanishamiz.

Kalit so'zlar: transplantatsiya, organ va to'qimalar, qonunlar, ichki organlar.

Organ va to'qimalar transplantatsiyasi nima-hech qanday tijorat yoki g'arazli maqsadlarisiz kelishilgan va ikki tomonning roziligi asoida shaxsning tirikligida yoki uning jasadidan organ va to'qimalarni tibbiy usulda to'g'ri jarrohlik usulida ko'chirib o'tkazish jarayonidir.

Amaldagi tartibga ko'ra, inson organlari va to'qimalarini transplantatsiya qilishni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Buyrak va (yoki) jigar bo'lagi hamda gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralarini transplantatsiya qilish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida“gi № 859-son qarorida umumiy qoidalar, transplantatsiyaga nisbatan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, Transplantatsiyani bajarish tartibi va yakunlovchi qoidalar o'z aksini topgan. Mazkur qonun hujjatida transplantatsiyani amalga oshirish jarayoni, standartlar va o'zaro munosabatlar o'z aksini topmaganligi sababli, Jahon tibbiyot assotsiasiyasi va JSSTning rasmiy hujjatlari bilan tartibga solinadigan organlar va to'qimalarni transplantatsiya qilish tartibini hisobga olib xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqiladigan va tijoratlashtirilishini umuman istisno etadigan „Inson organlari, to'qimalari va (yoki) hujayralarini transplantatsiya qilish to'g'risida“gi qonunni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish talab etiladi:

Meni qarashim bo'yicha bu darajaga yetishish uchun ham aslida inson ustida ayrim tajribalar o'tkazilgan. Lekin har qanday tajribalar ham insonning yani o'sha shaxsning roziligi bilan amalga oshirilishi kerak. Bir tomondan olib qaralganda bu insonlar o'zi rozilik bersa ham o'sha odamning qaysidir hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan organi yoki to'qimasini olish va uni boshqa insonga otkazish, shu insonning hayot faoliyatiga xavf tug'dirishi mumkin. Hattoki o'sha insonning o'limiga ham olib kelishi mumkin, lekin agar shu jarayon to'g'ri amalga oshirilsa va har qanday nojo'ya tasiri hisobga olinib, bartaraf etilsa bu kelajakda bo'ladigan turli sog'lik bilan bog'liq muammolarga yechim bo'lishi va inson umri uzayishiga sabab bo'lishi mumkin. Biz hozirgi kunda bunday jarayonlarga



to'g'ri tarafdand qaray olishimiz kerak. Aynan mana shu mavzu bo'yicha dunyo xamjamiyatining o'tkazgan tadbirlari

-1985-yildagi „Tirik organlar savdosi haqida“gi Butunjahon vrachlar Assosiasiyasi Murojaati

-JSSTning 2010-yildagi Inson organlari, to'qimalari vahujayralarini transplantasiya qilish bo'yicha Rahbariy (Bosh) prinsiplar;

-1987-yildagi „Organlar transplantasiyasi haqida“gi Butunjahon vrachlar Assosiasiyasi [Deklaratsiyasi](#);

-1994-yildagi „Inson organlarini transplantasiya qilishda vrachlarning xulqi masalalari“ bo'yicha Butunjahon vrachlar Assosiasiyasining Rezolyusiyasi;

-2004-yildagi „Milliy sog'liqni saqlash organlari tomonidan samarali [monitoringini](#) amalga oshirish zarurligi haqida“gi Rezolyusiyasi

-Butunjahon vrachlar Assosiasiyasining tirik organizmlar savdosi to'g'risidagi bayonoti (1985 y.),

Albatta organ va to'qimalar transplantatsiyasi jarayoni uchun ikki tomonning rozilik shartnomai kerak. Ikki taraf muvofiq kelgan taqdirda quyidagi shartlar asosida a'zoni ko'chirish amaliyoti mumkin bo'ladi:

Biror a'zosini hadya qiluvchi odamning a'zosi olinganda uning hayoti xavf ostida qolmasligi;

O'z a'zosini hadya qiluvchi odam ixtiyoriy ravishda bo'lishi, hech kim tomonidan majbur qilinmasligi;

A'zoning ko'chirilishiga sabab haqiqatan ham muhtoj bo'lgan bemorning kasalligi tibbiyot jihatidan faqat shu yo'l bilangina tuzalishi mumkin degan xulosaga kelingan bo'lishi;

A'zosi olinayotgan va yangi a'zo qo'yilayotgan ikki taraf uchun ham jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli tarzda o'tishi va kutilgan natijaga erishilishi tajribalarda kuzatilgan va unga ishonch hosil qilingan bo'lishi zarur

Donorlardan malum darajada qismlarni ko'chirish mumkin. Bu o'sha donor hayotiga xavf solmasligi kerak albattta. Quyida ko'chirilishi mumkin bo'lgan organlar ko'rsatilgan.

Ko'krak qafasi:

Yurak (faqat murda donor)



O'pka (murda va tirik donor)

Qorin bo'shlig'i:

Buyrak (murda va tirik donor)

Jigar (agar qisman jigar transplantatsiyasi zarur bo'lsa, o'likdan yoki bir nechta donordan butun jigar kerak bo'lsa, o'lik va donor)

Pankreas (faqat donorlar murda)

Ichak (murda va tirik donor)

Oshqozon (faqat donorlar murda)

Jinsiy organ (murda va tirik donor)

Va albatta mumkin bo'lmagan azolar bor, bular quyidagilar:

bir insonning nasli boshqasiga o'tishiga sabab bo'ladigan irsiy a'zolar, shu sifatlarni tashuvchi va homilaga sabab bo'luvchi a'zolar;

insonning yashashiga bevosita bog'liq bo'lgan yurak kabi a'zolar;

insonning to'kis yashashiga bilvosita bog'liq bo'lgan ko'z qorachig'i kabi a'zo.

Shuningdek, yurtimizda qanday qonun qoidlar bor bu haqida:

18 yoshga to'lmagan shaxslarga (bundan suyak iligini transplantasiya qilish hollari mustasno);

belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga, shuningdek ruhiy holatning buzilishlariga (ruhiy kasalliklarga) chalingan shaxslarga;

qamoqda yoki ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;

homilador ayollarga;

shaxsi aniqlanmagan shaxslarga;

muayyan yashash joyi bo'lmagan shaxslarga;

„Mehribonlik“, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylarida yashovchi shaxslarga;



aʼzosi va (yoki) toʻqimalari ilgari transplantasiya uchun olingan shaxslarga. Oʻzbekiston fuqarosi chet davlat fuqarosi boʻlgan respipient uchun donor boʻlishi mumkin emas. Transplantasiya qilinadigan inson aʼzolarini va (yoki) toʻqimalarini Oʻzbekistondan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi.

Yuqorida koʻrganimizdek Oʻzbekiston Respublikasida ham bu jarayonga yani organ va toʻqimalar transplantatsiyasiga ham malum darajada ruhsat berilgan. Lekin buning uchun zaruriy huquqiy qoidalar ishlab chiqilgan. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda sogʻliqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ushbu xizmat koʻlami kengayib, bugungi kunda mamlakatimizda yiliga 750 mingta jarrohlik amaliyoti bajarilmoqda. Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bu yoʻnalishdagi asosiy muassasadir. Hududlarda esa uning filiallari faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib shuni aytamanki, transplantologiya sohasini yanada rivojlantirishda bu yoʻnalishda huquqiy asoslarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu sohani yurtimizda rivojlantirish sogʻliqni saqlash sohasida ulkan yutuqlarga yoʻl ochib beradi. Organ va toʻqimalar transplantatsiyasi bu kelajak sohasi hisoblanadi, chunki bu jarayonga qiziqish ortib bormoqda. Bu soha koʻlami kengayib kelajakda ulkan yutuqlarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shimanovskiy Yu.K. Operatsii na poverxnosti chelovecheskogo tela.- Kiev, 1865, s.314. Problems of transplantation of human organs and tissues: international standards and international experience. RELIGACIÓN. REVISTA DE CIENCIAS SOCIALES Y HUMANIDADES. Nozimakhon Gafurova, Khasan Ochilov, Bobur Sobirov. Vol 4, No 16, Quito Trimestral, Junio 2019. pp. 714-719, ISSN 2477-9083

Press Release, Health Res. and Servs. Admin., U.S. Dep't of Health and Human Servs., HHS Will Expand Funds to Study Ways to Increase Organ and Tissue Donations (Apr. 17, 2001) (quoting Secretary of Health and Human Services Tommy G. Thompson), available at <http://newsroom.hrsa.gov/releases/2001%20Releases/organgrant.htm>.

Pirogov N.I. O plasticheskix operatsiyax voobshche, o rinoplastike v osobennosti,- V kn.Sobranie sochineniy .M., 1957, t.1, s.100-101.

Vsemirnaya organizatsiya zdravooxraneniya (VOZ). URL: <http://www.who.int/transplantation/ru/>.

Istoriya otechestvennoy transplantologii. M.1985, s.15.

Bogdanovskiy Ye.I. Opit perenosa kostey ot odnogo jivotnogo drugomu, Meditsinskiy vestnik, 1861, N 10, s.87.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛАШТИРИШ: Сиддиқов Нурали Нишонлиевич,
ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси

НН Сиддиқов - Научно-практическая конференция, 2022

СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ
СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА

НН Сиддиқов - Социосфера, 2020

Нурали Нишонлиевич Сиддиқов. "СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИДА
"ИЖТИМОЙ ШЕРИКЧИЛИК ТЎҒРИСИДА"ГИ ҚОНУНИНИНГ ЎРНИ" Academic
research in educational sciences, vol. TSDI and TMA Conference, no. 2, 2022, pp. 91-94.

Nurali Nishonalievich, S. . (2022). TODAY'S GENERATION OF ENTREPRENEURS AS
A SUBJECT OF HIGH SOCIAL RESPONSIBILITY: TODAY'S GENERATION OF
ENTREPRENEURS AS A SUBJECT OF HIGH SOCIAL RESPONSIBILITY. *Central
Asian Journal of Innovations and Research*, 4. Retrieved from
<http://www.sciencepublish.org/index.php/cajir/article/view/187>

Нигматова А.Н., Абдусапиева Р.Р., & Сиддиқов Н.Н (2023). КАЧЕСТВО ЖИЗНИ,
СВЯЗАННОЕ СО ЗДОРОВЬЕМ ПОЛОСТИ РТА, И ЕГО ВЛИЯНИЕ У ВЗРОСЛЫХ.
Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (5), 84-87. doi:
10.5281/zenodo.7569563

